	Задачи изучения и преподавания русского языка и литературы в общеобразовательных школах с узбекским языком обучения	654
	Ахмедов Нумон	
	Multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish	658
	Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Rahmonov Ziyodillo Xusanovich	
	Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi (immitativ-taqlidiy usul misolida)	661
	Jo'rayeva Dilafuz Nuriddinova	
	O'simliklarning issiqqa va qurqoqchilikka chidamliligi	664
	M. Nazarov, G. Maxsudova, T. Usmonova	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik jarayonlar ko'rsatkichlarining tahlili	667
	Masharipova Miyassar Ichanovna	
	Bo'lajak tarbiyachilarni "Tabiat bilan tanishtirish" fani asosida tarbiyaviy faoliyatini raqamlashtirish	675
	Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi	
	Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritishga tayyorlash muammolari	678
	Shaxnoza To'xtiyarova	
	Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	681
	Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
	Umumta'lim maktablarining 9-sinf fizika darslarida tovush hodisasini anglashni tajriba orqali rivojlantirish	684
	Sobirov Avazbek Anvarovich	
	Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari	689
	Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi	
	Portret janrini o'qitishda individual ta'lim va fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari	693
	Xudaynazarova Ug'iloy Sharifovna	
	Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	696
	Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna	
	Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
	Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
	Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
	Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
	O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
	E'zozxon Qobilova	
	Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
	G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
	Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
	G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
	O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
	Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
<i>Karribayeva Lobarxon Fayzulla qizi</i>	
Ilmiy matn o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
<i>Komilova Lola Nasilloeyvna</i>	
Dizariyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
<i>Munisa Shavkatova</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
<i>Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna</i>	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
<i>Nazarov Nursultan Safarbayevich</i>	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
<i>Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich</i>	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
<i>Qobilova Aziza Tursunovna</i>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
<i>Salimova Aziza Sharipovna</i>	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
<i>Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna</i>	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
<i>Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi ko'xlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
<i>Xamraeva Dildora Baxadirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
<i>Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna</i>	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПП	770
<i>Наган Олеся Талгатовна</i>	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
<i>Nishonova Sevara</i>	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
<i>Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya</i>	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
<i>Raxmonova Manzura Maxmudovna</i>	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
<i>Usarova Nigora Berdiyarovna</i>	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
<i>Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich</i>	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
<i>M. L. Aripova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
<i>Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi</i>	



TURKIY BITIKLARDA NOMLAR TIZIMI VA ULARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Munisa Shavkatova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: U. Rashidova
Dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi turkiy bitiklarda uchraydigan onomastik birliklar – shaxs nomlari, toponimlar, etnonimlar va teonimlarning qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor O'rxun–Enasoy yodgorliklaridagi onomastik nomlarning leksik-semantik xususiyatlari hamda ularning tarixiy va madaniy ahamiyatiga qaratilgan. Shuningdek, bu birliklarning turkiy xalqlarning dunyoqarashi, ijtimoiy tuzumi va til taraqqiyotidagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: qadimgi turkiy bitiklar, onomastika, toponim, etnonim, teonim, O'rxun–Enasoy yodgorliklari, til tarixi.

Abstract: This article analyzes the usage of onomastic units – anthroponyms, toponyms, ethnonyms, and theonyms – in ancient Turkic inscriptions. The focus is on the lexical and semantic features of onomastic names found in the Orkhon–Enisei monuments and their historical and cultural significance. The study also highlights the role of these names in shaping the worldview, social structure, and linguistic development of the Turkic peoples.

Key words: ancient Turkic inscriptions, onomastics, toponym, ethnonym, theonym, Orkhon–Enisei monuments, language history.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности употребления ономастических единиц – антропонимов, топонимов, этнонимов и теонимов – в древнетюркских письменных памятниках. Основное внимание уделяется лексико-семантическим характеристикам ономастических названий, встречающихся в орхоно-енисейских надписях, а также их историко-культурному значению. Освещается роль этих единиц в мировоззрении, общественном устройстве и языковом развитии тюркских народов.

Ключевые слова: древнетюркские памятники, ономастика, топоним, этноним, теоним, орхоно-енисейские надписи, история языка.

KIRISH

Ma'lumki, tilimiz har jihatdan nihoyatda boy va qadimiy tarixga ega. Unda ota-bobolarimiz ruhi mujassam. Xususan, qadimgi turkiy bitiklar – Kultegin va To'nyuquq bitiklarida ham tilimizning naqadar boy va jilvador ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu bitiklarda ishtirok etgan antroponimlar, zoonimlar, toponimlar, etnonimlar va barcha onomastik birliklar turli shakllarda namoyon bo'ladi.

Onomastika – tilshunoslikning nomshunoslikka oid tarmog'i bo'lib, unda inson, joy, urug', elat, daryo, tog', xudo va boshqa obyektlarning nomlari tahlil qilinadi. Qadimgi turkiy bitiklarda uchraydigan onomastik birliklar o'sha davr turkiy xalqlarining ijtimoiy hayoti, diniy e'tiqodi, siyosiy tuzumi va madaniyatidan dalolat beradi. Shu bois, ularni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnologiya va madaniyatshunoslik uchun ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qadimgi turkiy bitiklarda onomastik birliklarni o'rganish masalasi turkiyshunoslik, tarix va madaniyatshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mazkur sohada olib borilgan tadqiqotlar onomastik qatlamning til va tarix uyg'unligidagi o'rnini ochib beradi. Turkiy onomastika masalalari bo'yicha dastlabki ilmiy fikrlar XIX asrda shakllandi. V. V. Radlov, V. Tomsen, S. E. Malov kabi olimlar O'rxun–Enasoy yodgorliklarini o'rganish jarayonida ko'plab antroponim, toponim va etnonimlarni ilmiy muomalaga kiritganlar. Ayniqsa, V. Tomsenning 1893-yilda O'rxun bitiklarini o'qishi turkiy onomastika tadqiqotlarining poydevorini yaratdi.



S. E. Malov “Памятники древнетюркской письменности” asarida qadimgi yozma yodgorliklardagi nomlarni semantik, morfologik va tarixiy jihatdan tahlil qilgan. U “Bilgä”, “Kültegin”, “Tengri” kabi nomlarning ma’no qatlamiga alohida e’tibor qaratadi.

XX asrda A. N. Kononov, N. A. Baskakov, A. M. Shcherbak va E. R. Tenishevlarining izlanishlari natijasida qadimgi turkiy til onomastik tizimining grammatik va semantik asoslari chuqur tahlil qilindi.

O’zbek tilshunosligida esa N. Rahmonov, M. Ishoqov, Q. Sodiqov, Q. Omonov, E. Begmatovlarning ishlari onomastik birliklarning tarixiy–lisoniy xususiyatlarini o’rganishda katta ahamiyatga ega. Masalan, E. Begmatov “O’zbek tilining onomastikasi” nomli asarida antroponimlar va toponimlarning xalq tarixi bilan bog’liqligini ilmiy asoslab bergan. So’nggi yillarda turkiy yozma yodgorliklar tili va undagi onomastik birliklar kompyuter lingvistikasi, korpus tahlili hamda lingvomadaniy yondashuv asosida qayta o’rganilmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, qadimgi turkiy bitiklardagi onomastik birliklar ko’p qirrali tadqiqotlarni talab etadi. Ular faqat tilshunoslik emas, balki tarix, etnologiya va mifologiya bilan ham chambarchas bog’liqdir. Shu bois ushbu sohada kompleks yondashuv, ya’ni lingvistik, tarixiy va madaniy tahlil usullarining uyg’unligi dolzarbdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ilgari surilgan mavzuni yoritishda V. Tomsen, V. Radlov, S. E. Malov, A. N. Kononov, E. Begmatov kabi olimlarning onomastika va qadimgi turkiy yozuvlar bo’yicha ilmiy ishlari asos qilib olindi. Shu bilan birga, zamonaviy lingvomadaniy tahlil va tavsifiy metodlarning uyg’un qo’llanishi tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi. Mazkur tadqiqot qadimgi turkiy bitiklarda uchraydigan onomastik birliklarning lingvistik, tarixiy va madaniy jihatlarini o’rganishga qaratilgan bo’lib, u bir necha ilmiy yondashuv va tahlil usullariga asoslanadi.

Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri tavsifiy metod bo’lib, u qadimgi turkiy bitiklarda uchraydigan onomastik birliklarni aniqlash, ularning shakl va ma’no xususiyatlarini tavsiflashga xizmat qiladi. Ushbu usul orqali O’rxun–Enasoy yodgorliklaridagi antroponim, toponim, etnonim va teonimlarning morfologik hamda semantik tahlili amalga oshiriladi. Onomastik birliklarning kelib chiqishini aniqlash, ularning boshqa turkiy tillardagi o’xshash shakllari bilan qiyoslashda tarixiy-qiyosiy metod qo’llaniladi. Bu metod yordamida ayrim nomlarning (masalan, Tengri, Bilgä, Ötüken) qadimgi turkiy tillar tizimidagi o’rni va taraqqiyot bosqichlari izohlanadi.

Onomastik birliklarning ichki tuzilmasi, semantik ildizi va ma’no taraqqiyotini aniqlashda etimologik tahlil metodidan foydalaniladi. Bu usul yordamida ayrim onomastik nomlarning dastlabki ma’nosi hamda ularning keyingi davrlarda o’zgarish jarayoni yoritiladi. Qadimgi turkiy bitiklarda uchraydigan onomastik nomlarning xalq dunyoqarashi, diniy e’tiqodi va qadriyat tizimi bilan bog’liqligini aniqlashda lingvomadaniy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali onomastik birliklarning faqat til birliklari emas, balki madaniy fenomen sifatidagi o’rni ochib beriladi. Onomastik birliklarning uchrash chastotasi va turlari nisbatini aniqlash maqsadida statistik tahlil o’tkaziladi. Bu yondashuv turli onomastik turlar (antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, teonimlar) o’rtasidagi miqdoriy nisbatni ko’rsatishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda fanlararo metodlarning qo’llanilishi qadimgi turkiy onomastik tizimni kompleks tarzda o’rganish imkonini berdi. Natijada onomastik birliklarning til, madaniyat va tarix o’rtasidagi uzviy bog’liqligi aniqlanib, ularning semantik, funksional va madaniy qatlamlari yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O’rxun yodgorliklari, ayniqsa Kultegin va Bilga xoqon yodgorliklari (Xitoy saroy ustalari tomonidan ishlangan) o’zining tosh o’ymakorligi san’ati, run yozuvlarini aniq aks ettirishi, chiziqning qat’iyligi va bitiklarning nafisligi bilan ajralib turadi. Qadimgi ko’k turk bitiklarida ko’plab antroponimlar uchraydi: *To’nyuquq*, *Yo’llug’ tigin*, *Bumin xoqon*, *Eltarish xoqon*, *Bo’g’u xoqon*, *Bilga xoqon*, *Kultegin*, *Bo’kli xoqon*, *Elbilga xotun*, *Inanchu*, *Inal xoqon*, *Qapagan xoqon*, *To’ngra Sem* kabi shaxs nomlari o’sha davr tarixiy shaxslarini ifodalaydi. To’nyuquq bitigi Ikkinchi Turk xoqonligi davrida yashab o’tgan davlat arbobi, sarkarda, faylasuf va adib To’nyuquq xotirasiga tiklangan bo’lib, bitig muallifi uning o’zidir. Bitigda uning oti “*Bilgä TONUQUQ*” deb qayd etilgan. “*Bilgä*” so’zi unvon bo’lib, “*bilimdon*, *alloma*” degan ma’noni bildiradi. U xoqon maslahatchisi sifatida yuksak mavqega ega bo’lgan. Bitigning aniq yozilgan sanasi bo’yicha turli fikrlar mavjud: ayrim olimlar uni 712–716-yillar orasida, boshqalar 720-yil atrofida, yana bir guruh olimlar esa 725–726-yillarda yozilgan, deb hisoblaydilar. U. Sertkaya tarixiy voqealarni tahlil qilib, bitig taxminan 732–734-yillar orasida yozilgan degan xulosaga kelgan va To’nyuquq o’sha paytda 85 yoshlar atrofida bo’lganini bildiradi.

Yo’llug’ tigin esa Ikkinchi Turk xoqonligi davrida yashab ijod qilgan tarixnavis, yozuvchi va shoir bo’lib, uning ismi manbalarda turlicha shakllarda – *Yolig’*, *Yolug’*, *Yullug’*, *Yulug’* tarzida uchraydi. “*Tigin*” so’zi esa “*shahzoda*” ma’nosini beradi. O’zbekiston Milliy ensiklopediyasida Yo’llug’ Tegin haqida quyidagicha yoziladi: “Yo’llug’ Tegin (7-asr oxiri – 739-yil) – Turk xoqonligi xoqoni (734–739), ilk turkiy tarixchi, yozuvchi va shoir-

lardan biri. Bilga xoqon vafotidan so'ng o'zini Ijan xoqon deb atagan, Tan imperiyasiga (Xitoy) uch marta elchilar yuborgan, uning davrida davlatda barqarorlik va tinchlik hukm surgan. Kultegin (732) va Bilga xoqon (735) bitiklarining muallifi bo'lgan. Ushbu bitiklar jahon adabiyotshunoslari tomonidan yuksak baholangan va ularning yozuvlarida o'sha davr tarixiy voqealari haqqoniy yoritilgan." Bumin xoqon (Xitoy tarixiy manbalarida "Tumin") – Turk xoqonligi asoschisi va uning birinchi hukmdori (552–553) bo'lib, Jujan xonligiga tobe bo'lgan ashshina urug'ining sardori sifatida temir eritish va qurol-yarog' yasash bilan shug'ullangan. U "Elxon" unvoni bilan ilk Turk xoqonligi taxtiga o'tirgan.

Eltarish xoqon Ikkinchi Turk xoqonligini barpo etgan bo'lib, uning boshqa ismi Ashina Kutlug'dir. Bitiklarda "*Ältäris qagan bilgäsin üçün, alpın üçün Tabğaçqa yäti yigirmi sūñüsdı*" deb yozilgan. Bo'g'u xoqon Eltarish xoqonning inisidir. Xitoy manbalarida uning ismi Motjo shaklida berilgan. Ismining ikkinchi qismi "*tjo*" turkiy run matnlarida "*chur*"ga teng keladi. Braxma xatli turkiy matnlar nashr etilgach, ikkinchi harfni "*o*" ga o'zgartirib, "*chor*" deb o'qishgan. Shuning uchun "*Bo'g'u qag'an*" yoki "*Turuk Bo'g'u qag'an*" nomlari uchraydi, bunda "turuk" so'zi "jasur, mard" degan ma'noni bildiradi. Kultegin – Ikkinchi Turk xoqonligining asoschisi Eltarish xoqonning kenja o'g'lidir. Uning ismi qabr toshida "*KULTIGIN*" shaklida bitilgan. "*Tigin*" qadimgi turkiyda "shahzoda" ma'nosini bildiradi, "*Kul*" esa ba'zilar tomonidan shaxs ismi, boshqalar tomonidan "*ko'l*" so'ziga bog'lanadi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "*köllib bilgä xon*" ("aqli ko'ldek") yoki "kölerkin" ("aqli to'la") kabi birikmalar uchrashi bu fikrni tasdiqlaydi.

Qadimgi bitiklarda etnonimlar ham keng o'rin egallagan: *bökli cölgil, tabğaç, tüpüt, apar, purum, qırqız, üç qurıqan, otuz tatar, qıtan, tatabı, baz, az, qay* kabi xalq nomlari keltirilgan. Shuningdek, To'nyuquq bitigida gidronimlar ham uchraydi: "*Özüm, Az yirim..., bir turuqi ärmis, Anın barmıs anar yatıp..., Ani subuğ baralim..., Ärtis ögüzüg kächigsizin kældimiz, Tinsi oğlı yatığma Bänligäk tağığ...*" kabi parchalarda suv nomlari – *Inju (Inchü), Ögüz, Ärtis* kabi daryolar eslatilgan. Hayitboy Abduqodirov fikricha, "Inju Ukus daryosi" nomi haqiqatan ham To'nyuquq bitiglarida (VIII asr) tilga olingan bo'lib, "*Inchu og'uz suvini kechti*" degan jumlada keltiriladi. "Inch (Inju)" qadimgi turkiyda "marvarid", "shakar suvdek tiniq suv" ma'nosini bildiradi, "Oguz/Ukus/Oquz/Uqus" esa turli manbalarda bir xil daryoning turlicha shakllarda yozilgan ko'rinishidir.

V. Tomsen, Radlov, Klyashtorniy, Malov, Baytursunov, Aydarov kabi olimlarning fikriga ko'ra, *Inju (Inchü) Uqus* bugungi Mongoliya hududidagi Urxun daryosining shimoliy havzasida, Selenga yoki *Tola* daryosi yaqinida joylashgan bo'lgan. Ayrim talqinlarga ko'ra, bu daryo hozirgi *Tuul (Tola)* daryosiga to'g'ri keladi. Qadimgi turkiy bitiklar jangnoma ruhida yozilgani sababli zoonimlar ham ko'p uchraydi.

"To'nyuquq" bitigida "*buqa*" so'zi ikki marta, "*kıyık*", "*tovushqon*", "*qo'y*" bir martadan, ot esa ko'plab turlarda ishlatilgan. "Kultegin" bitiktoshida esa "*böri*" – 1 marta, "*qo'h*" – "*qo'y*" 2 marta, "*at*" – 13 marta, "*biçin*" – "*maymun*" 1 marta uchraydi. Bu holatdan kelib chiqadiki, zoonimlar qadimgi turkiy bitiklarning leksik tizimida muhim o'rin tutgan.

"Tinsi o'g'li" iborasi ham diqqatga sazovor bo'lib, Hayitboy Abduqodirov izohicha, bu ibora "Irq bitigi"da ham tilga olingan va katta ehtimol bilan xitoycha "*Tyan-szi*" – "*Ko'k o'g'li*", "*Osmon o'g'li*" birikmasining turkiy talaf-fuzidir. Bu epitet tarixan Xitoy imperatorlari va Turk xoqonlarini sharaflash uchun ishlatilgan. To'nyuquq bitigida "Tinsi o'g'li" iborasi xitoy imperatori yoki ularning ittifoqdoshi bo'lgan Inol xoqonni anglatgan bo'lishi mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra, turklar Inol xoqonni Temir qopqagacha (Boysun tog'lari) quvlab kelganlar, biroq topa olishmagan, faqat uning o'rdasini egallashgan. Bitiklarda shuningdek "*tezıklar va to'qurlar*" haqida so'z yuritilib, bu atamalar "*tojıklar va tuxorlar*"ni anglatsa-da, ayrim olimlar "*to'qur*" so'zini turkiy rotatsizmga mansub "to'quz" shakli bilan bog'laydilar. "*To'quz*" esa hozirgi janubiy o'zbeklar orasida keng tarqalgan urug' nomi sifatida saqlanib qolgan. Shu tariqa, qadimgi turkiy bitiklarda keltirilgan antroponim, etnonim, zoonim, gidronim va boshqa onomastik birliklar o'sha davr turkiy xalqlari hayoti, diniy dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy tuzumi hamda madaniy qadriyatlarini yorituvchi muhim manbalar sifatida baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qadimgi turkiy bitiklar – bu faqat yozma yodgorliklar emas, balki turkiy xalqlarning tarixiy tafakkuri, dunyoqarashi, ijtimoiy hayoti va madaniy qadriyatlarining jonli aksidir. Ushbu bitiklarda uchraydigan onomastik birliklar – antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, teonimlar va boshqa nomlar tizimi xalqning tarixiy xotirasi hamda til taraqqiyotining muhim qatlamini tashkil etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, qadimgi turkiy bitiklarda nomlar tizimi juda mukammal va ko'p qirrali bo'lib, ularning har biri muayyan ijtimoiy, siyosiy, diniy yoki mifologik ma'noni o'zida mujassam etgan. Masalan, *Bilgä, To'nyuquq, Kül Tigin, Bumin, Eltarish* kabi antroponimlar shaxsiy ism bo'lish bilan birga, ular orqali o'sha davrda mavjud bo'lgan ijtimoiy tabaqalanish, unvon va mansab tizimi, jamiyatning mafkuraviy qarashlari ifodalangan. Toponimlar va gidronimlar – *Ötüken, Yinçü ögüz, Tinsi o'g'li, Temir qopug'* kabi nomlar esa qadimgi turkiylarning joylashuvi, siyosiy hududi, tabiiy muhit bilan aloqasi hamda diniy–mifologik tasavvurlarini ko'rsatadi.



Ayniqsa, “*Ötüken yeri*” tushunchasi turkiy xalqlarning muqaddas markazi sifatida o'ta ramziy ma'noga ega bo'lib, u “yer–osmon birligi” g'oyasini ifodalaydi. Etnonimlar – *qirg'iz, otuz tatar, tabg'ač, tüpüt* kabi atamalar esa o'sha davrda turkiy qavmlar o'rtasidagi siyosiy, etnik va harbiy aloqalarni aks ettiradi. Bu nomlar tarixiy manbalardagi xalqaro munosabatlar va ittifoqlarni tahlil qilishda bebaho lingvistik manba bo'lib xizmat qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, qadimgi turkiy onomastik tizim faqatgina nomlash vositasi emas, balki xalqning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, siyosiy tuzumi va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi murakkab semantik tizimdir. Bu tizim orqali turkiy xalqlarning kosmogonik qarashlari, Tangriga sig'inish an'analari, davlatchilik mafkurasi va urug'–qabila tuzilmasi singari ijtimoiy–madaniy hodisalarni tadqiq etish imkoniyati tug'iladi. Qadimgi bitiklardagi onomastik birliklar hozirgi zamon turkiy tillaridagi nom yasash tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Ko'plab qadimgi nomlar bugungi o'zbek, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, turkman va turk xalqlari ismlar tizimida davom etib kelayotgani bu jarayonning uzluksizligini isbotlaydi.

Shu bois qadimgi onomastik qatlamni o'rganish nafaqat tarixiy–lingvistik jihatdan, balki milliy identitetni anglash nuqtayi nazaridan ham nihoyatda muhimdir. Mazkur tadqiqotdan kelib chiqib, quyidagi xulosalar va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- qadimgi turkiy onomastika tizimini kompleks o'rganish, ya'ni lingvistik, tarixiy, etnografik va madaniy yondashuvlarni uyg'un qo'llash ilmiy natijalarning aniqligi va chuqurligini ta'minlaydi;
- onomastik birliklarning semantik qatlamini aniqlash orqali turkiy xalqlarning qadimiy tafakkuri, diniy e'tiqodlari va siyosiy dunyoqarashi haqida yangi ilmiy xulosalar chiqarish mumkin;
- run yozuvlari asosidagi onomastik korpus yaratish – bu yo'nalishda yangi zamonaviy ilmiy platforma bo'lib xizmat qilishi mumkin, chunki korpus lingvistika yondashuvi orqali qadimgi nomlarning chastotasi, semantik turlari va morfologik modellari tizimli tahlil qilinadi;
- qadimgi turkiy bitiklardagi nomlarning hozirgi turkiy tillardagi shakl va ma'nolari bilan qiyosiy o'rganilishi ularning semantik evolyutsiyasini aniqlashda katta ahamiyatga ega;
- kelajakdagi tadqiqotlar doirasida zoonimlar, teonimlar va mifologik nomlar tizimi ham alohida yo'nalishda o'rganilishi maqsadga muvofiqdir, chunki bu qatlam turkiy xalqlarning qadimiy diniy tasavvurlarini tiklashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Is'hoqov M., Sodiqov Q., Omonov Q. Manry bitiglar. – Toshkent, 2009, 59-b.
2. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009, 223-b.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
4. Аманжолов А. История и теория древнетюркского письма. – Алматы: Мектеп, 2003, 384-б.
5. Sodiqov Q. Ko'k turk bitiklari: matn va uning tarixiy talqini. – Toshkent, 2004, 123-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.